

KREATIV YONDASHUVNI RAG'BATLANTIRISHDA SEMINAR

MASHG'ULOTLARNING ROLI

Toxirov Farrux Baxtiyorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi,

Annotatsiya: Maqolada talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, omillari, imkoniyatlari va tarkibiy qismlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ yondashuv, rag'bat, mashg'ulot, g'oyalar, fikrlashni shakllantirish, jarayon.

THE ROLE OF SEMINARS IN PROMOTING A CREATIVE APPROACH

Toxhirov Farrukh Bakhtiyorovich

Tashkent State University of Economics,

Senior Lecturer, Department of Specialization, Social-Humanities and Exact Sciences

Annotation: The possibilities and components of the development of creative qualities of future specialists are also described in detail. At the same time, the stages and factors of the development of creative qualities in students are highlighted.

Keywords: Creative approach, motivation, training, ideas, shaping thinking, process.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur." [1]deb ta'kidlab o'tganlar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda

ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

Tahlil va natijalar. Kreativlik turli vaziyatlarda ta’lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo‘lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi. Mohiyatiga ko‘ra OTM pedagoglarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish ular tomonidan pedagogik, psixologik hamda mutaxassislik fanlari asoslaridan to‘la xabardor bo‘lish, ular tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi. Har qanday shaxsda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagи sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta’lim amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o‘rganish, tashxislovchi metodlarni qo‘llash natijasida mu’lum bo‘ldiki, pedagoglarda kreativlik quyidagi to‘rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi.

Kreativ shaxsnинг shakllanish bosqichlari.

1. Pedagogik, psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy metodologik asoslarini o‘zlashtirish.
2. O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzlusiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish.
3. Mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish.
4. Mavjud nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish.

Talabalarda kreativlik sifatlarining o‘zlashtirilishiga erishish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha bosqichlar birdek ahamiyatli sanaladi. Patti Drapeauning yondashuviga ko‘ra talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi bosqich va g‘oyalar muhim ahamiyatga ega:

1. Boshlang‘ich savollar ravon fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda quyidagi vaziyatlar o‘quvchilar e’tiborini jalg etishda yordam beradi:

- Muammoni yechish yo‘llari.
- Bir maqsadga xizmat qiluvchi strategiyalar.
- Ihtiro qilingan narsalar va ob’ektlardan boshqa maqsadlarda foydalanish.
- Ma’lum bir ishni turlicha amalga oshirish.
- Yuzaga kelgan vaziyatning natijasini tahlil qilish.

Moslavshuvchanlikni shakllantirishda “aqliy hujum” mashqlari katta samara beradi. Bunda talabalar nafaqat bir qator g‘oyalalar, balki turli-tuman g‘oyalarni topishlari lozim. O‘quvchilarda moslavshuvchan fikrlashni faollashtirishda quyidagi savollar qo‘l keladi:

- sizningcha hayotda va ta’lim tizimida nimalarga o‘zgartirishlar kiritish lozim?
- ... ta’sir etishi mumkin bo‘lgan vaziyat, muammo, mavzular ro‘yhatini tuzing.
- ... rivojlantirishning qanday usullari mavjud? O‘ziga xoslikni (originallik) shakllantirishda quyidagi savollardan foydalanish o‘quvchilarda original javoblarni berishni faollashtiradi:

2. Turli kategoriyaga mansub savollar. Odatda o‘qituvchilar bir hil savolar berishga moyil bo‘ladi. Bu esa bir hillikni keltirib chiqaradi. Turli kategoriyaga mansub savollar esa o‘quvchilarda noodatiy javoblar berish, tahmin qilish, natijani oldindan ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bunday savollar quyidagilarni tashkil etadi:

- Foydalanishning boshqa usullari. Masalan, mobil telefonlardan yana qanday maqsadla va qanday vaziyatlarda foydalanish mumkin? Kompyuterga ma’lumot kiritishda qo‘llaniladigan disklardan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

- Mahsulot (predmet, ob'ekt, qonun va h.k.)ni yaxshilash, takomillashtirish. Mustaqillik Deklaratsiyasiga o'zgartirishlar kiritish. Ob-havoni oldindan aytib beruvchi uskunani takomillashtirish.
- Istiqbolga intilmoq. Mashhur insonlarning turli muammola, ta'lim tizimi, siyosiy rejimrga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan munosabati, fikrini yozing.
- Sabab va oqibat. Masalan, Fuqarolar urushining sabab va oqibatlarini yozing. Adabiy asar qahramoni hatti-harakatining sabab va oqibatlarini yozing. CHiqindini qayta ishslash sabab va oqibatlarini keltiring.

3. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi yuzaga kelgan muammoga teskari tomondan qarash va uni boshqacha yondashuv bilan tahlil qilish demakdir. Bunday strategiya o'quvchilardan erkin fikrlash, maslashuvchanlikni talab etibgina qolmay, balki ularda turli original fikr va qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi g'oyalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Havo ifloslanishini oldin olish emas, balki havoni yanada ko'proq ifloslantirish.
- Ichimlik suvini tejash emas, balki behudaga sarflash.
- Boshqalarni hursand qilish o'rniga yoqimsiz vaziyatlarni keltirib chiqarish.
- Ijobiy fikrlashni emas, balki salbiy fikrlashni targ'ib etish.
- A'luchi emas, ikkichi bo'lish.

4. Nuqtai nazarni ifodalash. Mazkur strategiyani munozara deb nomlash ham mumkin. Bunda talabalar boshqalarning fikrini inobatgan olgan holda o'z qarashlari to'g'ri ekanligini isbotlashlari lozim. O'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhg'a ajratib, ikki xil nuqtai nazarni o'rtaga tashlaydi. Har bir o'quvchi o'z fikrini himoya qilgan holda kichik bayon yozadi, so'ng kichik guruhdagi boshqa talaba bilan bo'lishadi. O'quvchilar har bir bayondan eng asosiy fikrlarni saralab oladilar va boshqa guruhdagi o'quvchilarga qarshi turishda ulardan foydalanadilar. Har bir fikr og'zaki bildirilib, bir o'quvchi bittadan gap o'qiydi. O'quvchilar guruhlarda har bir fikr va

qarashlarning ketma ketligini ham muhokama orqali kelishib oladilar. Bunday usul o‘quvchilarda jamoa bo‘lib, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini tarbiyalaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etish ida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion baryerlarning bartaraf etishning samarali yo‘llarini belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiylar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunlifaoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagи ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar ta’kidicha, oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko‘nikma va malkalarini rivojlanishining o‘zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta’minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi .

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Toshkent: O’zbekiston. – 2017. -104 b.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013.